

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkar Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNIIY MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF PEACE AND COOPERATION AND THEIR ROLE IN THE DEVELOPMENT OF MODERN SOCIETY

Rajabov Behruz Baxshillayevich

Independent Researcher,
Bukhara State University

Abstract. This article is dedicated to analyzing the philosophical and social essence of the concepts of peace and cooperation. It presents peace not merely as the absence of war, but as a complex process grounded in justice, mutual respect, social harmony, and sustainable development. The article also examines historical and philosophical interpretations of peace, its contemporary scientific meaning, and its role in societal development. Furthermore, just and unjust forms of peace are compared, their social consequences are analyzed, and the interconnection of political stability, economic cooperation, scientific and technological progress, and cultural dialogue is emphasized as essential for ensuring peace.

Keywords: peace, social harmony, social welfare, justice, democracy, society, social protection, environmental security.

TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Rajabov Behruz Baxshillayevich

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola tinchlik va hamkorlik tushunchalarining falsafiy hamda ijtimoiy mohiyatini tahlil qilishga bag'ishlanib, unda tinchlik faqat urushning yo'qligi emas, balki adolat, o'zaro hurmat, ijtimoiy muvozanat va barqaror rivojlanishga asoslangan murakkab jarayon sifatida yoritilgan. Shuningdek, tinchlikning tarixiy-falsafiy talqinlari, uning zamonaviy ilmiy mazmuni hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ochib berilgan. Bundan tashqari, tinchlikning adolatli va adolatsiz shakllari o'zaro solishtirilib, ularning ijtimoiy oqibatlari tahlil qilinib, tinchlikni ta'minlashda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy hamkorlik, ilmiy-texnik taraqqiyot va madaniy muloqotning o'zaro bog'liqligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tinchlik, ijtimoiy muvozanat, ijtimoiy farovonlik, adolat, demokratiya, jamiyat, ijtimoiy himoya, ekologik xavfsizlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N15>

Kirish. Tinchlik va hamkorlik insoniyat taraqqiyotining eng muhim va zaruriy omillaridan biri sifatida doimo e'tirof etib kelinadi. Ular oddiy ijtimoiy hodisa emas, balki uzluksiz rivojlanib boruvchi, murakkab ichki tuzilishga ega bo'lgan falsafiy fenomen hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida insonlar o'rtasidagi munosabatlar, manfaatlar uyg'unligi va ijtimoiy hamjihatlik aynan tinchlik va hamkorlik orqali shakllanadi. Faylasuf olimlar mazkur tushunchalarga turlicha yondashgan bo'lsalar-da, ularning barchasini birlashtiruvchi jihat tinchlikni barqarorlik, hamkorlikni esa rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etishdir. Tinchlik faqat urushning yo'qligi emas, balki adolat, o'zaro hurmat

va ijtimoiy muvozanat mavjud bo'lgan holatdir. Hamkorlik esa insonlarning umumiy maqsad yo'lida birlashib, o'zaro yordam va mas'uliyat asosida faoliyat yuritishini anglatadi.

Shu sababli, tinchlik va hamkorlik tushunchalarining falsafiy mazmunini chuqur tahlil qilish zamonaviy jamiyat rivojini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insoniyat taraqqiyoti aynan o'zaro ishonch, bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillariga tayangan holda barqaror davom etadi. Xususan, "tinchlik" tushunchasiga "Jahon falsafasi qomusi" lug'atida "urushlarga yo'l qo'ymaslik, davlatlararo nizo va mojarolarni siyosiy vositalar bilan hal etish, mamlakat ichidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta'minlash tamoyillari" sifatida ta'rif berilgan [1]. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, bu ta'rif "tinchlik" tushunchasining faqat tashqi emas, balki ichki, ya'ni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, ong va madaniyat darajasidagi ifodasini ko'rsatadi. Bu esa "tinchlik"ni bir holat emas, balki jarayon sifatida tushunishga olib keladi. Demak, ijtimoiy transformatsiyalar davrida bu jarayon doimiy ravishda dinamik xarakter kasb etib, ijtimoiy muvozanat orqali saqlanishi zarur bo'lgan holat sifatida namoyon bo'ladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda tinchlik va hamkorlik tushunchalarining falsafiy hamda ijtimoiy mohiyatini yoritish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini ijtimoiy-falsafiy tahlil, tizimli yondashuv va konseptual umumlashtirish usullari tashkil etdi. Falsafiy-tahliliy metod orqali tinchlik va hamkorlik tushunchalarining mazmuni, tarixiy rivojlanishi hamda turli ilmiy maktablar tomonidan ilgari surilgan qarashlar o'rganildi va tinchlik ijtimoiy munosabatlar evolyutsiyasi bilan bog'liq dinamik jarayon sifatida talqin qilindi. Tizimli yondashuv asosida tinchlik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy omillarning o'zaro uyg'unligi doirasida tahlil etildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida adolatli va adolatsiz tinchlik shakllari solishtirilib, ularning ijtimoiy oqibatlari baholandi hamda tinchlik mazmuni manfaatlar uyg'unligi bilan belgilanadi degan xulosa asoslandi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar, falsafiy manbalar va xalqaro siyosiy-huquqiy tamoyillarni o'rganish asosida manbaviy tahlil amalga oshirildi. Natijada tinchlik va hamkorlikning ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy mohiyati kompleks tarzda ochib berildi.

Muhokama va natijalar. Tinchlik insoniyat tafakkuri tarixida eng muhim ijtimoiy-falsafiy tushunchalardan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning mazmuni turli davrlarda turlicha talqin etilgan. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, tinchlik xalqlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda siyosiy maqsadlarga erishishda zo'ravonlik vositalaridan foydalanishni inkor etuvchi munosabatlar tizimi sifatida izohlanadi [2]. Bunday yondashuv tinchlikni passiv holat emas, balki ongli ravishda shakllantiriladigan siyosiy, huquqiy va ma'naviy jarayon sifatida tushunishga imkon beradi. Darhaqiqat, tinchlik ko'p asrlardan buyon insoniyatning eng ezgu orzularidan biri bo'lib kelgan. Urushsiz davrlar tarixda har doim ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va ma'naviyat yuksalgan davrlar sifatida namoyon bo'lgan. Insoniyat tajribasi shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va inson huquqlarining ta'minlanishi avvalo tinch muhit mavjud bo'lgan sharoitda amalga oshadi. Shu sababli tinchlik taraqqiyotning zarur sharti sifatida qaraladi. Biroq tinchlik g'oyasi har doim ham barcha urushlarni mutlaq inkor etish yoki abadiy tinchlik haqidagi romantik tasavvurlar bilan chegaralanmagan. Falsafiy va siyosiy tafakkur tarixida ayrim mutafakkirlar adolatni tiklash, zulmni bartaraf etish yoki insoniyat xavfsizligini ta'minlash maqsadida olib borilgan harakatlarni ham muhokama qilganlar. Bu esa tinchlik tushunchasining murakkab va ko'p qirrali fenomen ekanligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, tinchlik faqat urushning yo'qligi emas, balki adolatli ijtimoiy tartib, o'zaro hurmat, diplomatik muloqot va hamkorlikka asoslangan munosabatlar tizimidir. Zamonaviy dunyoda global xavfsizlik, xalqaro hamkorlik va insonparvarlik tamoyillarining rivojlanishi tinchlikni faol sa'y-harakatlar, kelishuv va mas'uliyat orqali ta'minlanadigan jarayon sifatida talqin etishni taqozo etadi. Demak, tinchlik insoniyatning nafaqat orzusi, balki ongli ravishda barpo etiladigan sivilizatsion qadriyatidir.

Tinchlik insoniyat taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy-siyosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, uning mazmuni jamiyatdagi kuchlar muvozanati, manfaatlar uyg'unligi hamda adolat tamoyillariga bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli tinchlikni faqat urushning yo'qligi sifatida emas, balki uning ijtimoiy mohiyatini, kim manfaatga xizmat qilayotganini va qanday sharoitda qaror topganini hisobga olib baholash zarur. Ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarga ko'ra, tinchlikni ikki asosiy shaklga ajratish mumkin: adolatli (demokratik) tinchlik va adolatsiz tinchlik.

Avvalo, adolatli (demokratik) tinchlik jamiyat rivoji uchun eng maqbul shakl hisoblanadi. Bunday tinchlik inson huquqlari, tenglik, ijtimoiy adolat va xalqlarning erkin rivojlanishiga asoslanadi. Demokratik tinchlikda kuch ishlatish emas, balki muloqot, kelishuv va hamkorlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. U xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va manfaatlar muvozanatini ta'minlaydi. Adolatli tinchlik sharoitida davlatlar o'z taraqqiyotini zo'ravonliksiz yo'l bilan amalga oshiradi, jamiyatda barqarorlik mustahkamlanadi, ilm-fan, madaniyat va iqtisodiy rivojlanish uchun qulay muhit yuzaga keladi. Shu bois demokratik tinchlik insonparvarlik g'oyalari va ilg'or ijtimoiy kuchlar manfaatlariga mos keluvchi tinchlik shakli sifatida qaraladi. Adolatli tinchlikning mazmuni quyidagi prinsiplarda o'z ifodasini topgan: "Davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid qilishdan voz kechish, chegaralarning daxlsizligi va hududiy yaxlitlikni saqlash, nizolar va mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat, davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda xalqaro huquq normalari va prinsiplari, BMT qarorlari va boshqa xalqaro hujjatlarni vijdonan bajarish" [3].

Bunga qarama-qarshi ravishda, adolatsiz tinchlik tashqi tomondan osoyishtalikni eslatga-da, aslida tengsizlik, bosim yoki talonchilikka asoslangan munosabatlar natijasida yuzaga keladi. Bunday tinchlik ko'pincha kuchli tomonning manfaatlarini himoya qiladi, zaif tomon esa majburiy murosa yoki siyosiy bosim ostida yashaydi. Adolatsiz tinchlikda ijtimoiy ziddiyatlar yashirin shaklda saqlanib qoladi va vaqt o'tishi bilan yangi nizolar yoki mojarolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Chunki adolat mavjud bo'lmagan joyda barqaror tinchlik uzoq davom etmaydi. Tinchlikning bu shakli vaqtinchalik barqarorlikni ta'minlasa-da, jamiyatda ishonchsizlik, norozilik va ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, tinchlikning haqiqiy qiymati uning qanday sharoitda va kim manfaatga xizmat qilayotganida namoyon bo'ladi. Adolatli tinchlik jamiyatni rivojlantiradi, inson salohiyatini ro'yobga chiqaradi va hamkorlikni kuchaytiradi. Adolatsiz tinchlik esa tashqi osoyishtalik ortida ziddiyatlarni yashiradi va barqaror taraqqiyotga to'sqinlik qiladi [4].

Tinchlik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik hamda madaniy hamkorlik kabi omillar uyg'unligi asosida shakllanadi va aynan ushbu sohalarining qanday yo'nalishda rivojlanishi tinchlikning adolatli yoki adolatsiz ko'rinishda qaror topishini belgilaydi.

Avvalo, tinchlikning siyosiy elementi jamiyat barqarorligining asosiy tayanchi hisoblanadi. Siyosiy tinchlik davlatlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, suverenitetni tan olish, xalqaro

huquq normalariga rioya qilish hamda nizolarni muzokara va diplomatiya orqali hal etishga asoslanadi. Adolatli siyosiy tizim mavjud bo'lgan jamiyatda fuqarolar huquqlari himoyalanaadi, ijtimoiy adolat ta'minlanadi va siyosiy qarorlar umumiy manfaatlarga xizmat qiladi. Aksincha, siyosiy bosim, tajovuzkorlik yoki kuch siyosati ustuvor bo'lgan sharoitda tinchlik barqaror bo'la olmaydi [5].

Tinchlikning iqtisodiy elementi esa jamiyat farovonligi va ijtimoiy tenglik bilan bevosita bog'liqdir. Iqtisodiy hamkorlik, savdo aloqalari, resurslardan oqilona foydalanish va o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlar davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Iqtisodiy tengsizlik, kambag'allik yoki resurslar uchun kurash esa ko'pincha nizolar manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli barqaror tinchlik iqtisodiy adolat, ijtimoiy himoya va umumiy farovonlikni ta'minlash orqali mustahkamlanadi.

Tinchlikning ilmiy-texnik elementi zamonaviy davrda alohida ahamiyat kasb etadi. Ilm-fan va texnologiyalar insoniyatni birlashtiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Innovatsiyalar, ilmiy hamkorlik, ta'lim almashinuvi va texnologik taraqqiyot jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytiradi. Ilmiy yutuqlar inson farovonligi, ekologik xavfsizlik va global muammolarni hal etishga xizmat qilganda tinchlik mustahkamlanadi. Biroq ilm-texnika harbiy ustunlik vositasiga aylantirilsa, u tinchlikka emas, balki yangi ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin [6].

Tinchlikning madaniy hamkorlik elementi esa xalqlar o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni ta'minlaydi. Madaniyatlararo muloqot, bag'rikenglik, an'analar va qadriyatlarni o'zaro hurmat qilish jamiyatlar o'rtasida ishonch muhitini yaratadi. Madaniy almashinuv insonlarda umumiy insoniylik tuyg'usini shakllantirib, stereotip va qarama-qarshiliklarni kamaytiradi. Aynan madaniy hamkorlik orqali tinchlik nafaqat siyosiy kelishuv, balki ma'naviy qadriyat sifatida qaror topadi [7].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tinchlik va hamkorlik insoniyat taraqqiyotining ajralmas falsafiy hamda ijtimoiy qadriyatlari sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tinchlik faqat urushning yo'qligi emas, balki adolat, o'zaro hurmat, hamjihatlik va barqaror ijtimoiy munosabatlarga asoslangan murakkab jarayondir. Tinchlikning mazmuni uning qaysi manfaatlarga xizmat qilishi bilan belgilanib, adolatli tinchlik jamiyat rivojini ta'minlasa, adolatsiz tinchlik yashirin ziddiyatlar manbai bo'lib qoladi. Siyosiy barqarorlik, iqtisodiy tenglik, ilmiy-texnik taraqqiyot va madaniy hamkorlikning uyg'un rivojlanishi barqaror tinchlikni qaror toptirishning muhim omillari hisoblanadi. Zamonaviy globallashuv sharoitida tinchlik insoniyatning umumiy mas'uliyati va ongli tanloviga aylanmoqda. Shu bois tinchlik va hamkorlikni mustahkamlash nafaqat siyosiy zarurat, balki insonparvar sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik maqsad sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. –Т.: “Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2023. –Б.323.
2. Пенфилов Е. Мир //Философская энциклопедия в 5 томах. Т. 3. –М.: Наука, 1964. – 584 с.
3. Maintain International Peace and Security // <https://www.un.org/en/our-work/maintain-international-peace-and-security>
4. Husanov Azizbek. (2025). Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Икро журнал, 14(02), 887–889.
5. SCO Heads of State Council Meeting // <https://eng.sectsco.org/20240704/1445827.html>

6. Husanov Azizbek. (2025). Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. iqro indexing, 14(02), 887-889.
7. Obidjon qizi, S. G. (2022). Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik o'zbek xalqining yuksak qadryatidir. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 255–257.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).